



UO'K:323.3:329.78:008(575.1)

Sharofuddin XONIMOV,

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati bo'lim boshlig'i, PhD

E-mail: sharofiddin_2017@mail.ru

Renessans universiteti professori, f.f.d. O.Musayev taqrizi asosida

THE SOCIO-CULTURAL SOCIALIZATION OF YOUTH, THEIR POLITICAL ACTIVITY, AND THEIR INITIATIVE FORM THE FOUNDATION OF COMPREHENSIVE TRANSFORMATIONS IN THE FIELD OF YOUTH POLICY

Annotation

This article presents accurate and reliable information on the concepts of "social," "political," "activity," "youth," "legal," "cultural," "theoretical," "initiative," and "society," based on relevant academic literature. Scientific interpretations of these concepts are provided and illustrated with examples.

Key words: Youth policy, social activity, political, New Uzbekistan, republic, law, culture, ideology, initiative-oriented (initiative), foundation, changes.

СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ СОЦИАЛИЗАЦИЯ МОЛОДЕЖИ, ЕЁ ПОЛИТИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ И ИНИЦИАТИВНОСТЬ СОСТАВЛЯЮТ ОСНОВУ МАСШТАБНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В СФЕРЕ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация

В данной статье социальный, политический, активность, молодёжь, правовой, культурный, теоретический, инициативность, общество.

Ключевые слова: Молодёжная политика, социальная активность, политический, Новый Узбекистан, республика, право, культура, идеология, инициативный, основа, изменения.

YOSHLARNING IJTIMOYIY-MADANIY JIHATDAN IJTIMOYILASHUVI, SIYOSIY FAOLLIGI HAMDA TASHABBUSKORLIGI – YOSHLAR SIYOSATI SOHASIDAGI KENG QAMROVLI O'ZGARISHLARNING ASOSINI TASHKIL ETADI

Аннотация

Mazkur maqolada "ijtimoiy", "siyosiy", "faollik", "yoshlar", "huquqiy", "madaniy", "nazariy", "tashabbuskorlik", "jamiyat" tushunchalari to'g'risida alohida adabiyotlarga tayangan holdagi to'g'ri va aniq ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur tushunchalar xususida ilmiy talqinlar misollar bilan keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar siyosati, ijtimoiy faol, siyosiy, yangi O'zbekiston, respublika, huquq, madaniyat, mafkura, tashabbuskor, asos, o'zgarishlar.

Kirish. Yoshlar - jamiyatning eng faol va innovatsion qatlami hisoblanib, ularning boshqaruv jarayonlarida ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega.

Davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish, boshqaruvning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, eng muhimi, boshqaruvda yoshlarning ishtirokini kengaytirishda mamlakatimizda keng qamrovli yangilanish-larning asosiy poydevorini tashkil etadi. Har bir davlat organining faoliyati, qabul qilinayotgan qarorlarning amalda bajarilishi, jarayonlar shaffofligi va mas'ul shaxslarning javobgarligi davlat siyosatining zamonaviy mezonlariga aylangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvini demokratlashtirish va modernizatsiya qilish masalalari, avvalo, normativ-huquqiy hujjatlar hamda strategik dasturlar orqali asoslab berilgan. Xususan, "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati tizimidagi o'rnini mustahkamlash, vakillik organlari faoliyatini kuchaytirish va siyosiy raqobat muhitini kengaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur hujjat davlat boshqaruvida ko'ppartiyaviylik tamoyilini institutsional darajada mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish orqali boshqaruvni markazdan hududlarga bosqichma-bosqich yaqinlashtirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy muammolarni joylarda hal etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi, Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan bo'lib, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda sud-huquq tizimini isloh qilishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Strategiya islohotlarni tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish mexanizmini belgilab, modernizatsiya jarayoniga kompleks yondashuvni ta'minlaydi.

Shuningdek, Sh.M. Mirziyoyevning asarlarida qonun ustuvorligi, inson manfaatlar ustuvorligi va ochiq muloqot tamoyillari davlat siyosatining asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Ushbu manbalar islohotlarning nafaqat huquqiy, balki konseptual-g'oyaviy asosini ham shakllantiradi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar davlat boshqaruvini demokratlashtirish jarayoni normativ-huquqiy asoslar, institutsional islohotlar va strategik rivojlanish

konsepsiyasi uyg'unligida olib borilayotganini ko'rsatadi. Bu esa mamlakatni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning izchil modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yoshlarning boshqaruvdagi roli har qachongidan muhim va asosiy masala, ular esa quyidagilarda namoyon bo'ladi davlat va mahalliy boshqaruv organlari huzuridagi yoshlar kengashlari orqali qaror qabul qilishda ishtirok etish, parlament, mahalliy kengashlar va jamoat tashkilotlarida faollik ko'rsatish, ijtimoiy loyihalar va tashabbuslar orqali jamiyat muammolarini hal etishda qatnashish, raqamli boshqaruv, innovatsiya va zamonaviy yondashuvlarni joriy etishda tashabbuskorlik qilish.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yoshlarning faolligini nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy-tahliliy hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. "Ijtimoiy", "siyosiy", "faollik", "yoshlar", "huquqiy", "madaniy", "tashabbuskorlik", "jamiyat" kabi tushunchalar ilmiy adabiyotlar asosida kontseptual tahlil qilinib, ularning mazmun-mohiyati va o'zaro bog'liqligi ochib berildi.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va monografiyalarni o'rganish asosida manbaviy tahlil amalga oshirildi. Tadqiqotda obyektivlik, tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga amal qilindi. Natijada yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini shakllantiruvchi omillar nazariy jihatdan umumlashtirilib, ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Yoshlarni boshqaruvga jalb etishning ahamiyati - demokratik jarayonlarni mustahkamlaydi, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni oshiradi, kadrlar zaxirasini shakllantiradi, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi va mas'uliyatini kuchaytiradi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yurtimizni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilish uchun qabul qilinayotgan qaror va topshiriqlar "qog'ozda emas, amalda natija berishi" kerak. Bu tamoyil ijro intizomiga yuksak amaliy ahamiyat bag'ishladi.

Yoshlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan meyoriy-huquqiy hujjatlarni amalga oshirish;

Boshqaruvda ijtimoiy siyosiy faol va tashabbuskor yoshlarning son va sifat jihatidan yangi bosqichga chiqib borishi - ikki muhim yondashuvni mustahkamlaydi. Birinchisi - tartib-intizomni kuchaytirish, ikkinchisi - harakat emas, natija uchun mas'uliyatni ustuvor mezoniga aylantirishdir. Zero, bajarilgan va qilinayotgan islohotlar soni emas, jamiyatning manfaatiga xizmat qiladigan samaradorlik, o'z vaqtida bajarilgan topshiriq, aniq natija - ustuvor hisoblanadi.

Xususan, ushbu fundamental fikrimizni yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatini muvofiqlashtirishga mas'ul va vakolatli idora hisoblangan - Yoshlar ishlari agentligi tizimida misol va namuna sifatida oladigan bo'lsak - qat'iy intizom shaxsiy javobgarlik instituti kuchaytirilib, mas'ullar faoliyatiga baho berishning yangi mezonlari joriy etildi. Rahbarlar uchun KPI tizimi tatbiq qilinishi, intizom buzilishiga nisbatan chora ko'rish mexanizmi qayta ko'rib chiqilgani, ijro samaradorligini monitoring qilishning yagona tartibi belgilab berilgani o'tgan qisqa vaqt ichida sezilarli natijalar berdi. Bu tizim faqat nazorat vositasi emas, rahbarlar va mas'ul xodimlar faoliyatini baholashning, rag'batlantirishning aniq mezoni sifatida ishlamoqda.

Nazorat bor joyda tartib bo'ladi bunday yondashuv natijasida Hurmatli Prezidentimiz tomonlaridan barcha yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim olish, kasb-hunar egallash, iste'dodlarni ro'yobga chiqarish, bandlik masalalaridagi keng ko'lamli faoliyati amaliy ahamiyat kasb

etib bormoqda. Shubhasiz, bularning ichida bandlik, yoshlar jinoyatchiligining oldini olish va davlatning e'tiboriga muhtoj yoshlar bilan ishlash masalasi juda, shuningdek yoshlarning jamiyatda ijtimoiylashuvi, faollik va tashabbuskorligini ortib borishi dolzarbdir.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda yoshlar siyosati va yoshlar bilan ishlashning vertikal tizimi yaratilgani har bir mahallaga biriktirilgan yoshlar yetakchilaridan aniqlik, natijadorlik va tezkorlikni talab qilmoqda. Yoshlar muammolarini "yuqori bo'g'ingacha chiqmasdan turib" quyi tizimning o'zida hal etish ijro intizomining amaliy natijasidir. Bu jarayonda yoshlar yetakchilarining uyma-uy yurib, yoshlarning holatini o'rganishi, murojaatlarni qayd etishi va ularni mas'ul idoralarga yo'naltirishi, eng muhimi, har bir murojaat bo'yicha natijaga erishishi kutilmoqda.

Xususan o'tgan davr mobaynida mahallalardagi yoshlar yetakchilari ko'magida 9,2 million yoshlar balansi shakllantirildi. Ihsiz va biznes boshlash istagidagi 384,4 ming yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Yoshlar bandligi dasturi" qabul qilinib, 354 ming nafarining (92 foiz) bandligi ta'minlandi. Shu jumladan, 115 ming ihsiz yoshlar respublika, hududiy va mahalliy darajadagi idoralarning 4 588 nafar rahbarlariga shaxsan biriktirilib, ularning barchasini to'liq bandligi ta'minlandi.

Yangi O'zbekiston sharoitida Yoshlar bilan ishlash Rahbarlarning har qachongidan ham ustuvor vazifasiga aylandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qat'iy talabi va siyosiy irodasi sifatida yoshlar masalasi mahalliy idoralar uchun "qo'shimcha vazifa" emas, balki har bir mas'ulning kundalik faoliyatidagi bosh yo'nalish sifatida belgilab berildi.

Mazkur yondashuv natijasi har bir yoshga mas'ul rahbarlar biriktirilib, ularning hayot tarzidan boshlab, oilaviy muhitigacha, ta'limdan chetda qolishidan tortib bandlikdagi uzilishlargacha - ko'p qirrali muammolarga individual yechim topish amaliyoti joriy etildi.

Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyat darajasining kamayishiga, bandlik, ta'lim va psixologik ko'makning bir butun tizim sifatida ishlashiga olib keldi. Ta'limdan chetda qolgan minglab yoshlar qayta o'qishga jalb qilindi.

Jamiyat, yoshlar bugungi kun talabidan kelib chiqib, zamonaviy, har tomonlama yetuk, innovatsion fikrlay oladigan, har qanday sharoitda ham o'zining mustaqil va fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan faol yoshlar - tizimning har qanday yangilanishlarni amalga oshirishga tayyor. Yoshlar bilan ishlash tizimidagi hozirgi natijalar keyingi bosqich uchun asos bo'ladi deb o'ylayman.

Muhimi, bugun jamiyat va tegishli mas'ul va mutasaddilar "murojaat kelgach harakat qilish" modelidan chiqib, "oldini olish, barqaror yechim yaratish" modeli sari ilgarilayapti. Rejalar ham ayni tamoyil asosida shakllanmoqda. Bu narsa esa o'z navbatida yoshlarning har qanday sharoitda mukammal va tashabbuskor bo'lib voyaga yetishishida jamiyatda ijobiy tomonlama ijtimoiylashuvida muhim rol kasb etadi.

Bu modelni hayotga to'laqonli tatbiq etish uchun birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yangi O'zbekiston sharoiti davrida qilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlari, ortga qaytmas islohotlari asosida yo'lga qo'yiladi.

Yoshlarning ijtimoiy-madaniy jihatdan ijtimoiylashuvi, siyosiy faolligi hamda tashabbuskorligi - yoshlar siyosati sohasidagi keng qamrovli o'zgarishlarning asosini tashkil etadi.

Yoshlarning ijtimoiy-madaniy sotsializatsiyasi, siyosiy faolligi hamda tashabbuskorligini oshirish yoshlar siyosati sohasidagi keng qamrovli o'zgarishlarni ta'minlashda hal

qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-madaniy ijtimoiylashuv — yoshlarning jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar, meyorlar, an'analar va madaniy xulq-atvorni o'zlashtirish jarayonidir. Bu jarayon oila, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari va raqamli muhit orqali amalga oshadi. Ijtimoiy-madaniy ijtimoiylashuvning ahamiyati albatta yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, ma'naviy barkamol, mas'uliyatli shaxsni tarbiyalaydi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga moslashuvni osonlashtiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. O'z navbatida yoshlarning siyosiy faolligi esa - yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi jarayonlarga ongli ravishda qatnashishi, siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi va fuqarolik pozitsiyasini bildirishidir. Bu esa jamiyatda quyidagi shakllarda, ya'ni saylovlarda ishtirok etish, yoshlar parlamentlari va kengashlari faoliyati, jamoatchilik nazorati, siyosiy va ijtimoiy loyihalarda qatnashish kabi siyosiy shakllarda namoyon bo'ladi.

Demokratik jarayonlarni rivojlantiradigan, davlat va jamiyat o'rtasida muloqotni mustahkamlaydigan, islohotlarni qo'llab-quvvatlaydigan qatlam vakillari emas - siyosiy faol yoshlar sanaladi.

Tashabbuskorlik - yoshlarning yangi g'oya va takliflar bilan chiqishi, muammolarga ijodiy yondashishi va ularni amalga oshirishga intilishidir.

Yoshlarning tashabbuskorligi emas tadbirkorlik va startaplar, ijtimoiy loyihalar, innovatsion va raqamli yechimlar, volontyorlik harakatlarida ko'proq namoyon bo'ladi, bizning tahlil va fikrlarimizcha.

Tashabbuskor yoshlar, ijtimoiylashgan qatlam vakillari jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi va aksariyat toifa vakillariga ijobiy tomonlama manipulyativ ta'sir o'tkaza oladigan toifa hisoblanadi.

Yoshlarning ijtimoiy-madaniy ijtimoiylashuvi, siyosiy faolligi va tashabbuskorligi yoshlar siyosati sohasidagi keng qamrovli o'zgarishlarning asosini tashkil etadi. Bu omillar yoshlar siyosatining samaradorligini oshiradi, barqaror taraqqiyotni ta'minlaydi, kelajak rahbar va mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi, fuqarolik jamiyatini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi omillar xulosamizcha yoshlar tashabbuskorligi, ijtimoiy siyosiy faolligi - yoshlar siyosatidagi ahamiyatini yanada ochib beradi.

Zero yoshlar yoshlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, hurmatli yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek – xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi.

Mamlakat ijtimoiy-madaniy rivojida iste'dodli, fidoyi ijodkor kreativ fikrlaydigan yoshlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar muammolarini har tomonlama tahlil qilish va o'rganish, muammoning kelib chiqish sabab va omillarini nazariy jihatdan mushohadalash, muammo borasida mustaqil fikr yuritish, muammoni hal etishning imkoniyatlarini tahlil qilish va uni yechishning eng maqbul yo'lini topishga qodir bo'lishlari uchun ularda ijodiy tafakkur va kreativlikni parvarish qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va taklif. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy-madaniy jihatdan ijtimoiylashuvi, siyosiy faolligi va tashabbuskorligi jamiyat taraqqiyotining uzviy va strategik omili hisoblanadi. Yoshlar siyosati samaradorligi, avvalo, ularning huquqiy ong va madaniy saviyasi, fuqarolik mas'uliyati hamda muammo borasida mustaqil fikr yuritish, muammoni hal etishning imkoniyatlarini tahlil qilish va uni yechishning eng maqbul yo'lini topishga qodir bo'lgan, ijodiy tafakkur va kreativ parvarish qilib shakllanganlik darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiylashuv jarayoni oila, ta'lim tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat siyosatining o'zaro uyg'un hamkorligi asosida rivojlanadi. Aynan shu integrativ yondashuv yoshlarni jamiyat hayotining faol subyektiga aylantiradi hamda keng qamrovli islohotlarning barqaror ijtimoiy tayanchini yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, yoshlar siyosatini yanada takomillashtirishda ularning siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirish, tashabbus va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, qaror qabul qilish jarayonlarida real ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliy mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish, yoshlar tashabbuslarini institutsional va moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda natijadorlikka asoslangan monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yo'nalishlarda tizimli va izchil chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirib, jamiyatda demokratik qadriyatlar va barqaror rivojlanish tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 15-son, 153-modda.
2. “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017., 6-son, 69 - modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi” // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 06/18/5308/0610-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.– 32.b
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.– 56 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.